

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ  
ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА УЛАРДА  
ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**



**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ  
В XXI ВЕКЕ И ЗНАЧЕНИЕ В НИХ  
ИННОВАЦИЙ**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ  
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ  
ВА УЛАРДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Биология ва уни ўқитиш методикаси кафедраси профессори Хударган  
Мавлонов таваллудининг 75 йиллигига бағишланган**

**Республика илмий анжумани материаллари  
(2021 йил 15 апрель)**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ В XXI ВЕКЕ И  
ЗНАЧЕНИЕ В НИХ ИННОВАЦИЙ  
МАТЕРИАЛЫ**

**Республиканская конференция, посвящённая к 75-летию профессора  
кафедры биологии и методики её преподавания Хударгана Мавлонова  
(15 апреля 2021 года)**

**Жиззах-2021**

**УДК: 581.5 (09)**

**ББК: 28.58 Г**

**Э-59**

**“XXI асрда Биологиянинг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг аҳамияти” мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари**

Жиззах 2021. – 498 бет.

**Таҳрир хайъати:**, проф. п.ф.д. Ш.С.Шарипов, таҳрир хайъати раиси б.ф.н. доц. Қодиров Ғ., таҳрир хайъати ўринбосари проф., б.ф.д. Раҳмонқулов У. доц., б.ф.д. (PhD) Азимова Д.Э. б.ф.д. (PhD). Авалбоев О.Н. б.ф.д. (PhD). Абдуллаева Н.С. б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т. Усанов У.Н.

**Тўплам редакторлари:** б.ф.д.(PhD)., доц. Азимова Д.Э., б.ф.д.(PhD). Авалбоев О.Н., б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

*Ушбу тўплам Жиззах давлат педагогика институтида 2021 йил 15 апрелда бўлиб ўтган Республика илмий анжумани материалларидан иборат.*

*Уларда флора, систематика ва юксак ўсимликлар географияси, биологикхилма-хилликни ўрганиш ҳамда ноёб, йўқолиб бораётган ўсимлик ва ҳайвон турларининг муҳофазаси, ўсимликлар қоплами, ресурсларини ўрганиш, структуравий ботаника, экология, интродукция, сув ва қуруқлик ценозлари ҳайвонларни ўрганиш, паразитлар ва энтомокомплекслари шакллантирувчи, ҳаракатлартирувчи тадқиқотларнинг замонавий муаммолари бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.*

*Мақолалар тўплами илмий ҳодимлар, қишлоқ хўжалиги ва сув хўжалиги мутахасислар, олий ва ўрта махсус ўқув юртлари ўқитувчи, талабалари ҳамда тадқиқотчилар учун мўлжалланган.*

**Мазкур тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълими вазирлигининг 2021 йил 2 мартдаги 78-Ф-сонли фармойиши асосида нашрга тавсия этилган.**

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

**Xolmo'minova B., Qulbekova N.  
Jizzax VXTXQTMOHM,  
Sh.Rashidov tumani 15- umumta'lim maktabi**

O'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi shaxs tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning zarur shartlaridan biridir. Fikr nutq orqali ifoda etilsa, ona tili ta'limi oldida nechog'li ma'suliyatli vazifani hal qilish masalasi turganini anglash qiyin emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mezonlari sifatida biz quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin.

- a) o'rganilayotgan materialni mustaqil tahlil qila bilish;
- b) muammoni hal eta bilish;
- c) hodisa va jarayonlardagi belgilarni taqqoslash, umumlashtirish, umumlashma xulosalar chiqarish;
- d) o'z fikri va tushunchasini mantiqiy dalillash, fikrlarni ravon ifodalash;
- e) o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llay bilish.

Ijodkorlik- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayonidir. Ijodkorlik o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ob'ektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo'lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, ilmiy mehnat va badiiy mehnat va boshqalar. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Boshlang'ich ta'lim dasturlari, o'qitilayotgan o'quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko'rsatadiki, 1-4- sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga yo'naltirilgan o'quv materiallarini to'g'ridan- to'g'ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo'lsada, mahoratli o'qituvchi o'z faoliyatini o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin.

Og'zaki so'rash; yozma ishlar o'tkazish; amaliy ishlarni bajarish; turli didaktik o'yinlar o'tkazish orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarning "O'qish" darsida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun o'quv materiallarida berilgan tushunchalar konkret – induktiv metod vositasida o'rganilishi va o'qituvchining mohirona darsni tashkil qilishi natijasida ularda ijodiy faollikning oshishiga zamin yaratilishi mumkin. Bunda o'quvchilar avval o'qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o'rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalarini aniqlaydilar, so'ngra o'qituvchi rahbarligida ta'rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Bundan tashqari konkret induktiv yo'l orqali tushunchalarni kiritish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil bo'ladi, buning natijasida o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Fikrimizning dalili sifatida 4-sinflarga mo'ljallangan "O'qish" darsligida keltirilgan Kaykovusning "Ota va ona

haqini bilmak” hikoyasini o‘rganishni konkret – induktiv metod orqali olib borilishi maqsadga muvofiqligini aytib o‘tmoqchimiz.

Ijodiy faollikni shakllantirishning abstrakt-deduktiv metodi. Bunda o‘rganiladigan tushuncha uchun ta’rif tayyor ko‘rinishda oldindan konkret misol va masalalar yordamida tushuntirilmasdan kiritiladi. Masalan, 4-sinflarga mo‘ljallangan “O‘qish” darsligida keltirilgan Husayn Voiz Koshifiyning “Salomlashish odobi” (2-chorak), Jonatan Sviftning “Gulliverning sayyohatlari”(3-chorak), Nizomi Aruzi Samarqandiyning “Sulton Mahmud va Beruniy (4-chorak), Xondamir qalamiga mansub “Tanbeh” kabi hikoyatlar abstrakt-deduktiv metod orqali quyidagicha taqdimot qilishni tavsiya etamiz:

1. Taqdimot qoidasi
2. Chiqish reglamentiga rioya qilish
3. Chiqish navbatiga rioya qilish
4. Guruh a‘zolari o‘rtasida vazifalarni aniq taqsimlash va ular xatti-harakatini ijodiy faollikka chorlash

Ma’lumotlar grafik ko‘rinishida (sxema, jadval, grafik) taqdim etilishi lozim bo‘ladi. Har qanday grafik ko‘rinishidagi ma’lumot sharhlanishi talab etiladi. O‘ylab ko‘ring va guruhda taqdimotni baholash ko‘rsatkichlari va mezonlarini muhokama qiling. Yoki 4-sinfning “Tarbiya” darsida “So‘z– noyob gavhar” ertagini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar “andisha nima?”, “andishali inson fazilatlarini qaysilar?” kabi savollarga javob berish uchun innovatsion metodlardan biri klasterdan foydalanildi. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy faoliyat yuritishga yo‘naltirildilar. Ular ertak asosida ijodiy fikrlashga harakat qilishib, darsning oxirida o‘zlari mustaqil ravishda “So‘z-noyob gavhar” ertagidan hissa chiqarishga musharraf bo‘ldilar. Andishasiz gaplar: jismoniy aybini topib yuziga solish, dag‘al gap, o‘ylamay gapirish kabi xususiyatlarga oid misollar topishdi, shu mavzuga taalluqli maqollarni saralashdi. Avvalambor o‘quvchilar andisha so‘zi yuzasidan aqliga kelgan barcha fikrlarni yozdilar.

Darsdagi ko‘tarinkilik ruhi o‘quvchilarning ijodiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish mumkinligi dasturlarda belgilangan. Fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda fikrlar ketma-ketligi va bog‘liqligi masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 4-sinfning 4-choragida “O‘qish” darsligida o‘rganiladigan Xans Kristian Andersenning “Bolalar gurungi” ertagiga atab chizilgan rasmlar, minihikoyalar bolalarda ijodiy tasavvurni kengaytirishga zamin yaratadi. Ushbu ertakning sahnalashtirilgan ko‘rinishi esa ularni ijodiy faollikka undaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremum-press”, 2014. -119 b.
2. T. G‘afforova, Sh.Nurillayeva, Z.Mirzahakimova. “O‘qish kitobi” Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2- sinfi uchun darslik. 2018 yil

	OLAM” VA “TABIATSHUNOSLIK” DARSLARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TRIZ TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH...	94
34	BOSHLANG’ICH SINFLAR O’QUVCHILARI IJODIY FIKRLASH QOBILİYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	96
35	Ergasheva N.E., Sodiqova M.Sh. INTERFAOL USULLAR ORQALI O’QUVCHILARDA MUSTAQILISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH.....	98
36	Jabbarova Z. O. Islamova N. BOSHLANGICH TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO’LLARI.....	101
37	Almamatova Z.X, Esankulova D. S. Aliqulova S. T. EKOLOGIK MADANIYAT VA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING MUHIM JIHATLARI.....	103
38	Murotova G.N., Ismatullayev O. KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA CHET TILLAR BO’YICHA EGALLANGAN BILIM, KO’NIKMA VA MALAKALARNI MULOQOT JARAYONIDA QO’LLASH QOBILİYATIDIR.....	105
39	Mustafaqulova D. I., Ismatullayev O., Azamova M. A. BIOLOGIYA DARSLARIDA “DOMINO” METODIDAN FOYDALANISH.....	108
40	Раббимова Ф.А., Абдумуродова Д.У. ПОЗНАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ЦЕННОСТИ ПРИРОДЫ.....	110
41	Жулбоев Т.А., Убайдуллаева З., Абдувалиева К.Х, Султонов М.М. КИМЁВИЙ ЖАРАЁНЛАРНИ МОДЕЛЛАШТИРИШДА CROCODILE CHEMISTRY ДАСТУРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИСТИҚБОЛИ УСУЛИ.....	112
42	Imomov O. N., To’xtaboyeva Yu.A. TA’LIMDA YEVRONA OLIIY O’QUV YURTLARINING INNOVASION TAJRIBALARI (Polsha misolida).....	116
43	Раббимова Ф.Т., Жўраева Л. БЎЛАЖАК БИОЛОГИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АМАЛИЁТДАГИ ҲОЛАТИ.....	118
44	Shaymatov S.R., Maxammadiyev D.M., Pardaboyev S.B. O’QUVCHILARGA EKOLOGIK TA’LIM – TARBIYA BERISH.....	122
45	Rabbimova F.T., Djamalova V. BOTANIKA DARSLARIDA RA’NODOSHLAR OILASINI O’QITILISHIDA ESTETIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH.....	125
46	Toshpo’latov O. INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TA’LIMDAGI O’RNI.....	127
47	Раббимова Ф.Т., Тошпўлатов О. БЎЛАЖАК БИОЛОГИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	132
48	Кубакова К. К., Остонов Ш. БИОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	135
49	Холбутаев Ш. СИНФДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА – ЭКОТУРИЗМ СОҲАСИ ОРҚАЛИ ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ	